



QISSALARIGA KO'CHGAN SHAXSIYAT YOXUD QISSADAGI
TAQDIRLAR(TOG 'AY MUROD QISSALARIGA BIR NAZAR)

Sardor Jo'raqulov

Toshkent Amaliy fanlar universiteti magistranti

joraqulovsardor33@gmail.com

+998997770541

Annotatsiya: *Ushbu maqolada yozuvchi Tog'ay Murod qissalari avtobiografik metod asosida tahlil qilinadi. Ijodkorning obraz yaratish mahorati, estetik ideali kabi masalalarga e'tibor qaratiladi. Yozuvchining laboratoriyasiga doir fikrlar o'rta tashlanadi. Asarda aks etgan taqdiralar yozuvchi shaxsiyati orqali ko'rib chiqiladi va tahlil qilinadi. Maqolani yozishda shaxsiy arxivdan foydalanilgan.*

Kalit so'zlar: *Tog'ay Murod, qissa, avtobiografik tahlil, ijodiy metod, shaxsiyat, obraz yaratish, estetik ideal.*

Аннотация: *В данной статье на основе автобиографического метода анализируются повести писателя Тогая Мурада. Уделяется внимание таким вопросам, как мастерство автора в создании образа и эстетический идеал. Представлены размышления о писательской лаборатории. Судьбы, отраженные в произведениях, рассматриваются и анализируются через призму личности писателя. Статья написана на основе личного архива.*

Ключевые слова: *Тогай Мурад, повести, автобиографический анализ, творческий метод, личность, создание образа, эстетический идеал.*

Abstract: *This article analyzes Togay Murad's short stories using an autobiographical method. It focuses on such issues as the author's mastery of character creation and aesthetic ideal. Reflections on the writer's laboratory are presented. The stories reflected in the works are examined and analyzed through the lens of the writer's personality. The article is based on his personal archive.*

Keywords: *Togay Murad, short stories, autobiographical analysis, creative method, personality, character creation, aesthetic ideal.*

Kirish. Har bir badiiy asar ijodkorning ong-shuuridan, shaxsiy his-tuyg'u va kechinmalari tufayli qog'ozga tushadi. Har bir asarning o'z yaratilish tarixi bo'ladi. Taniqli yozuvchi Tog'ay Murodning qissalarida muallifning shaxsiy kechinmalari ham aks etganki, biz quyida shu haqda so'z yuritamiz.

Tahlil va mulohazalar. To'gay Murod yaratgan obrazlarni u yaratgan asarlarni uning shaxsiyatidan, ma'naviy, e'tiqodiy, ruhiy dunyosidan ayricha tasavvur qilish qiyin. Nafaqat To'gay Murod, balki boshqa ijodkorlarda ham bu jarayonni ayricha tasavvur etish mushkul. Ijodiy ilhom, ilohiy istedoddan emas, hayotiy opponentlardan (raqiblardan) "o'ch" olish (R.Qo'chqor fikri) va ruhiy zo'riqish bilan yozilgan asarlar







MODERN PROBLEMS IN EDUCATION AND THEIR SCIENTIFIC SOLUTIONS

bundan mustasno albatta. Biz jazm qilganimiz ham Tog‘ay Murod qissalariga (biografik metod asosida. - S.J) uning ruhiy va shaxsiy dunyosi orqali qarash va tahlil qilish. Biografik tahlil haqida adabiyotshunos B. Karimov shunday deydi: “Ijodkorning shaxsiy hayotiga, yashagan muhitiga, ruhiy-psixologik holatiga, shaxsiy qiziqishlariga, asarni yozishga turtki bergan ilhom faktorlariga, ijodkor laboratoriyasiga va shu kabi qator tarixiy-individual masalalarga jiddiy e‘tibor qaratadi”[1. 35]. Albatta badiiy ijod va undagi badiiy haqiqatning asosi hayot. Bir nechta ijodkorlar tomonidan yozilgan bir mavzu doirasidagi asarlar ham bir- biridan tubdan farq qiladi. Chunki mavzu mushtarak bo‘lsa-da, janr mushtarak bo‘lsa-da yozuvchi hayotiy haqiqatlarni o‘z ko‘ngil prizmasidan o‘zicha o‘tkazadi va o‘zining badiiy kashfiyotini qiladi. Hayot haqiqatini o‘zicha anglaydi, o‘zicha tushunadi, o‘zicha ijod laboratoriyasida “pishitadi”. Har bir ijodkor-san’atkor o‘zicha bir olam. Ularning biri ikkinchisini takrorlamaydi, biri boshqasidan farqlanadi” [2. 20]. Aytmoqchi bo‘lganimiz ham ana shu farqlanishda bo‘y ko‘rsatadigan ijodkorning shaxsiy hayoti, uning kechinmalari, uni yozishga “majburlagan” faktorlardir.


Yozuvchi shaxsiyati ko‘rinadigan asosiy nuqtalardan biri bu albatta u yaratgan obrazlarda namoyon bo‘ladi. Ijodkor nafaqat obrazlar harakterida, balki obrazning suratida ham bo‘y ko‘rsatishi mumkin. “Oydinda yurgan odamlar”[3.13] qissasida Qoplonning tasvirlanishiga to‘xtasak: “Bo‘zbola yelkador, pishiq qomatlik bo‘ladi. Kulcha yuzlarida chuqur-chuqur kuldargichlari bo‘ladi. Qo‘y ko‘zlik siyrak qoshlik bo‘ladi”. Asar yozilgan yilga e‘tibor qilsak, ya’ni 1980- yil yozuvchining 32 yoshiga, eng kuchga to‘lgan umrning eng shijoatli davriga to‘g‘ri keladi. Biz uchun eng muhim va ishonchli manba hisoblangan yozuvchining “Men” nomli maqolasida qayd etishicha: “Men go‘dakligimdan davralarda kurashib katta bo‘ldim. Polvonlik mening qonimda bor, ajdodimda bor”[4. 26] deya polvonligini aytsa, yana bir maqolada “Men tong vaqti soat besh – soat oltilar orasida turaman. Stadionga boraman. Sakkiz, o‘n kilometr yuguraman”[5.65] Ushbu ma’lumotlardan ko‘rinadiki, Qoplonning portretini chizishda yozuvchi o‘zidan kelib chiqqan, o‘zining portretini chizgan. Qo‘y ko‘zlik, siyrak qoshlik tariflari ham yozuvching suratiga tushadigandek nazdimizda. Yozuvchi yaratidagi asarlarda tasvirlangan bosh qahramonlarning deyarli hammasi “zuvalasi pishiq” polvon kelbatli obrazlar. Bu obrazlarni suratida yozuvchi albatta o‘zini berishga harakat qilgan. Qoplon harakteridagi ba’zi nuqtalar ham yozuvchi harakterida ko‘rinadi. “U mijozi xush ko‘rmish, odamlar bilan salom alik qiladi. Bordi-keldi qiladi. Chin dildan gapirishadi. Ochilib gurunglashadi. Ko‘ngliga o‘tirmaydiganlar bilan salomlashgisi-da kelmaydi” . Qoplonning ushbu harakteri ham aynan Tog‘ay Murod tabiatida bor va eng yetakchi harakter desak yanglishmaymiz. “Ijodim shunday, asarlarim shunday” nomli maqolasida: “Yana tag‘in, menda salom-alikning mazasi yo‘q. Duch kelgan odamga salom bergim kelmaydi. Bo‘lgan- bo‘lmagan odamga salom bergim kelmaydi. Ayniqsa yomon ko‘rgan odamlar bilan mutlaqo salomlashgim kelmaydi”[6, 86]. “Badiiy ijod shunday bir sehrli hodisaki, adib shaxsiyatidagi ko‘pdan ko‘p xislat-fazilatlaru qusurlar asarlaridagi





MODERN PROBLEMS IN EDUCATION AND THEIR SCIENTIFIC SOLUTIONS

qahramonlar tabiatiga ko'chib o'tadi"[7,56] Adabiyotshunos No'mon Rahimjonov yuqoridagi badiiy asar va shaxsiyat haqidagi fikrlari asosidek. Shuning uchun ham bir yozuvchi boshqasini takrorlamasa kerak. Chunki Alloh taolo har bitta bandasiga bir birini takrorlamaydigan xarakter ato etgan. Har bir yozuvchi o'z xarakteridan kelib chiqib ko'rgan kechirganlarini, o'zining estetik idealini ko'ngil prizmasidan o'tkazgan holda dilidagini tiliga chiqaradi va qo'g'ozga tushiradi. "Oydinda yurgan odamlar" qissasidagi yozuvchi ko'rsatmoqchi bo'lgan ideali ham Qoplon va Oymomo obrazlari orqali farzandsizlikdek og'ir musibatga chidash, sabr qilish va oxirigacha sabr qilish, vafo kabi xislatlarni umumbashar uchun o'rnatilgan bo'lganlarni ko'rsatmoqchi bo'ladi. Badiiy asar dunyoga kelishi uchun xarakterning o'zi kamlik qiladi albatta Alloh tomonidan in'om etilgan iste'dod yozuvchining ko'rgan va eshitganlari, ruhiy dunyosi, hayotiy tajribalariyu yaxshi - yomon kunlari, buning barcha-barchasi badiiy asarning, (Hotam Umurov ta'biri bilan aytganda) ijodiy rejaning "urug'lanishi" uchun asos fikrimizcha. Badiiy asar yaratilish tarixi haqida fikr berish to'g'risida olim Rahmon Qo'chqorning fikri ham asosli va haqqoniy ta'rif deb o'yladik: "Yaratilish tarixi tahlil qilinayotgan har bir konkret asarga yondashishda, avvalo, uning muallifi o'sgan muhit, qadriyatlar va didini shakllantirgan obyektiv va subyektiv omillar hisobga olinsa, chiqarilgan xulosalardagi xolislik ta'minlangan bo'ladi." [8. 156] Xo'sh, Tog'ay Murodning qissalarini qog'ozga tushirishga undagan faktorlar nima edi? Rahmon Qo'chqor aytmoqchi bo'lgan muhit edi. Adabiy laboratoriyasining asosiy qismi bo'lmish- epik makon - so'lim Surxon vohasi edi. Yozuvchi "Yulduzlar mangu yonadi" qissasi haqida shunday deydi: "Azaldan bizning milliy kurashimiz bor. Bu eskilik sarqiti, bid'at- dedilar! Bu yovvoyilik!- dedilar. Asl maqsad- milliy o'zbek kurashini chetga surib qo'yish bo'ladi. Men shu kurashni saqlab qolmoqchi bo'ldim. Shaxsiy parokandalik, omadsizlik tuyg'ularini, his-hayajonlarini, kechinmalarini el-yurtga mehr-oqibat tuyg'ularim bilan birlashtirdim. Ikki tuyg'umni yagona bir qudratga jamladim. Yagona bir ezgu maqsad tomon yo'naltirdim. "Yulduzlar mangu yonadi" - ana shu ikki tuyg'uning mahsuli bo'ldi" [9. 5]. Yozuvchini ijodga boshlagan omil sobiq sho'ro tuzumining o'zbek xalqining ajralmas qismi bo'lgan qadriyatlariga cheklov qo'ygani ekan. Asar syujet chizig'i, voqealar rivoji, obrazlar taqdiri esa yozuvchi ko'z o'ngida kechgan voqea -hodisalar degan xulosaga keldik. Yuqorida ta'kidlanganidek, badiiy materialning asosi hayotdir. Hayotdagi voqea-hodisalar obrazga turtki bo'lgan prototiplar va boshqa omillarni yozuvchi o'zining ijod laboratoriyasida "qaynatar" ekan, har biriga o'zining estetik idealini qo'shadi. "Yulduzlar mangu yonadi" qissasidagi Bo'ri polvon ham aslida begona emas: "Tog'ayning otasi Bo'rivoy Oltinsoydagi birinchi zootexniklardan edi, zo'r kurash tushardi, shu otasining xarakteri To'gayga o'tgan, judayam cho'rtkesar qaysar odam bo'lgan" (Shaxsiy arxivlarimizdan, rasmiy e'lon qilinmagan - S. J) Yozuvchining quyidagi gaplari fikrlarimizni isboti deyish mumkin: "Men go'dakligimdan davralarda kurashib katta bo'ldim. Polvonlik mening qonimda bor, ajdodimda bor". Yozuvchi Bo'ri polvon orqali o'zining estetik idealini aks ettirishga





MODERN PROBLEMS IN EDUCATION AND THEIR SCIENTIFIC SOLUTIONS

harakat qilib, mardlik, sodiqlik va eng muhimi - halollik kabi o'zining, balki, umumbashariy bo'lgan eng muhim hayot prinsiplarini aytmoqchi bo'ladi. Bo'ri polvon orqali asariga chin, toza "baland" sevgini kiritadi. Tog'ay Muroddek adabiy fenomenni yuzaga chiqargan omillardan yana biri bu halollik, mardlik hislatlari va shu hislatlarning asarlarida bo'y ko'rsatishi deb o'ylaymiz. Asardagi kurash texnikasi, polvonlar harakteri va kurashning "qadriyatlarini" yozuvchi chuqur o'rganadi va his qiladi. "Ot kishnagan oqshom"[10. 126] qissasi haqida yozuvchining shunday qaydlari bor: "Kech kuzda yurtimizga yo'l oldim. Sattor chavandoz degich bilan til topishdim. U menga ot topib berdi. Men otlandim... Sattor chavandoz bilan qishloqma-qishloq yurdim. To'yma - to'y yurdim. Kunduzlari ko'pkari chopdim. Necha bor otdan yiqildim. Kechalari to'yxonalarda chavandozlar bilan gurunglashdim. Uzun qish ko'pkarixona- ish joyim bo'ldi, chavandozlar- hamxonam bo'ldi, otlar- birodarim bo'ldi". Yuqoridagi fikrlardan oydinlashadiki Tog'ay Murod bu qissani ham hayot faktlaridan kelib chiqib yozadi. Tog'ay Murodning partadosh do'sti bilan suhbatimizda shunday degan edi: "Ziyodulla degich sinfdoshimiz bo'lardi, kal edi, u paytlar meditsina yaxshi rivojlanmagan edi, boshda yara bo'lsa kalxonaga olib ketardi. Yaqin-yaqingacha bizda kal qishloq bor edi" (Shaxsiy arxivimizdan. - S. J). Yozuvchi hodisalar bayonida eng kichik detallarigacha o'rganadi va hayotda yuz bergan voqea-hodisalardan foydalanadi. Obrazlariga o'zining estetik idealini singdiradi. Adabiyotshunos X. Umurov: "Yozuvchi hayot faktlarini o'zgartirsada, hayotiy tajriba asosida tasvirlanayotgan hayotni jonlantirilishi, tasvirning hissiyligi, va go'zalligini taminlaydi"[11, 150],- deb yozuvchi tajribasi va uning asari o'rtasidagi bog'liqlik haqida asosli fikr bildiradi. Yuqorida aytmoqchi bo'lganimiz ham aynan hayotning o'zini berish emas, ayrim voqea-hodisalarni ko'ngil prizmasidan o'tkazgan holda o'zining idealini yaratish. Ziyodulla kal obrazida ham yozuvchi oliyanob tuyg'ularini kiritmoqchi bo'ladi. Bu tuyg'ular mardlik, nohaqliklarga, adolatsizliklarga chidolmay, ezgulikni himoya qilish, ko'rib ko'rmaslikka, bilib bilmaslikka olish kabi razil illatlardan holi, vijdonan pok bo'lish kabi insoniy hislatlarni qo'shadi.

Xulosa o'rnida buyuk polyak adibi Yan Parandovski fikrlarini berishga qaror qildik: "Eng go'zal poema, bu- uning tuzulishi va o'z ijodkori hayotidagi barcha voqelar silsilasida rivoj topgan ijod tarixidir" [12. 230] Xaqiqatda eng go'zal asar ijdokorining shaxsiyati yo'g'rilgan asardir. Qalb harorati bilan bitilgan asarlar umrboqiy bo'ladi. Jahon va milliy adabiyotimizda bunga misollar ko'p. Tog'ay Murodning ko'pgina asarlari ham mana shu ro'yxatda zikr qilinadiganlardandir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. "Men qaytib kelaman" (Tog'ay Murod zamondoshlari xotirasida) www.ziyo.uz
2. Karimov. B. Ruhیات alifbosi. Toshkent. G'afur G'ulom nomidagi ijodiy-matbaa uyi. 2018





MODERN PROBLEMS IN EDUCATION AND THEIR SCIENTIFIC
SOLUTIONS

3. “Ойдинда юрган одамлар”. Қисса, Т.;Ғ. Ғулом номидаги Адабиёт ва санъат нашриёти .1985
- 4.”Yulduzlar mangu yonadi”. Qissa. Ziya nashriyoti. 2020
5. Каримов Б. Адабиётшунослик методологияси.Т. :”Muharkir” nashriyoti. 2011
6. Бадий ижод ҳақида.Т.; Ғ. Ғулом номидаги адабиёт ва санъат нашриёти. 1960
7. Нўмон Раҳимжонов. Бадий асар. Ўз РФА "Фан" нашриёти. 2008
8. Раҳмон Қўчқор. Мен билан мунозара қилсангиз. Тошкент, "Маънавият", 1998
9. Тоғай Мурод. Танланган асарлар. Шжилд. Ҳикоялар, мақолалар, кундалик дафтардан. 2019
10. “От кишнаган оқшом”. Қисса, -Т.: Ғафур Ғулом номидаги Адабиёт ва санъат нашриёти, 2017
11. Умутов Хотам. Бадий ижод асослари .-Т.: "Ўзбекистон" 2001
12. Ян Парандовский. Сўз кимёси: Бадиа, эсселар. О. Шарофиддинов, М. Акбаров таржимаси. - Тошкент: Янги аср авлоди, 2022
13. <https://telegra.ph/TO%D2%92AJ-MUROD-BADIYATI-05-29>

